

**GIPPOKRAT TIBBIYOTI: ILMIY TIBBIYOTGA ASOS SOLGAN
MUTAFAKKIR MEROSI**

Tursunova Gavhar Bekmurodovna

ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi (PhD)

Normurodov Asilbek Asqar o'g'li

Davolash fakulteti, 212-guruh

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Dolzarblik: Qadimgi Yunonning buyuk tabibi Gippokrat (b.z. avv. 460–370-y.) jahon tibbiyoti tarixida alohida o'rin tutadi. U o'z davridagi turli diniy va mifologik tushunchalarga asoslangan davolash usullarini yo'qqa chiqarib, tibbiyotni mustaqil, ilmiy asosga ega fan sifatida shakllantirdi. Gippokratning asarlari, klinik kuzatishlari va axloqiy qoidalari zamonaviy tibbiyot falsafasining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

Materiallar va usullar: Gippokratning tibbiyotga qo'shgan asosiy hissalar. Gippokratga qadar kasalliklar odatda xudolarning jazosi yoki sehr-joduning natijasi sifatida talqin qilingan. Gippokrat esa birinchi bo'lib kasalliklarning tabiiy sabablari borligini ilgari surdi. U inson organizmini atrof-muhit, hayotiy tarz va irsiy omillar bilan bog'lab tushuntirdi. Bu yondashuv tibbiyotni mustaqil ilmiy fan sifatida shakllantirishning asosiy qadami bo'ldi. Gippokrat tibbiyotning eng muhim usullaridan biri — klinik kuzatish metodini ishlab chiqqan. U bemorning holatini uzoq vaqt davomida kuzatish, harorat, nafas, qon aylanish, teri holati, og'riqlar va boshqa belgilarni doimiy qayd etishni talab qilgan. Shu tarzda u zamonaviy klinik diagnostika asoslarini yaratdi.

Natijalar: Gippokrat tibbiyotida inson organizmidagi muvozanat muhim o'rin tutadi. Uning fikricha, salomatlik quyidagi to'rt xiltning mutanosibligiga bog'liq: qon (sanguis), sariq o't (cholera), qora o't (melancholia), balg'am (phlegma).

Ulardan biri ortiqcha yoki kamayib ketsa, kasalliklar yuzaga keladi, deb

hisoblangan. Garchi bu nazariya hozirgi tibbiyotda qo'llanilmasa-da, o'sha davr uchun ilmiy fikrlashning katta yutug'i bo'lgan. Gippokrat tabiiy davolash usullariga alohida e'tibor bergan. Uningcha, tabiatning o'zi — asosiy shifobaxsh kuch (“vis medicatrix naturae”). Davolashda quyidagi usullar keng qo'llanilgan: parhez va to'g'ri ovqatlanish, dam olish va toza havo, jismoniy mashqlar, massaj va yordamchi muolajalar, psixologik tinchlik va muhit gigiyenasi. Bu usullar bugungi kun uchun ham ahamiyatini yo'qotmagan. Gippokrat va uning shogirdlariga tegishli 60 dan ortiq asarlar “Gippokrat to'plami” nomini olgan. Bu majmuada anatomiya, fiziologiya, etiologiya, diagnostika, epidemiologiya, jarrohlik va axloq hamda tibbiy amaliy falsafa masalalari qamrab olingan. Bu asarlar orqali ulamolar ilk bor kasalliklarni klinik belgilar, tashqi ta'sirlar va davolash jarayoni bilan bog'lab o'rganish imkoniga ega bo'ldi. Gippokrat tibbiyotda axloqiy me'yorlarga katta e'tibor qaratgan. Uning mashhur Gippokrat qasamyodi shifokorlarning faoliyatida insoniyatparvarlik, vifoq, sir saqlash, bemor manfaatini birinchi o'ringa qo'yish kabi tamoyillarni belgilaydi va unda quyidagilar bayon etilgan. “Apollon Tabib, Asklepiy, Gigiyei va Panakeya hamda barcha xudolar va xudoylarning nomi bilan qasam ichaman: O'qituvchimni ota-dek hurmat qilaman, u menga ilm o'rgatgani uchun haqini to'layman; uning farzandlarini o'zirniki kabi qadrlayman; agar xohlasalar, tibbiyot san'atini hech qanday haq talab qilmasdan ularga ham o'rgataman. Men o'z bilimlarimni shogirdlarimga, ustozimning bolalariga va tibbiyotni qasam bilan qabul qilganlarga bo'lishaman. Bemor uchun foyda keltiradigan tarzda davolayman, hech qachon zarar yetkazmayman. Hech kimning iltimosiga binoan ham, zarar keltiruvchi vositani bermayman va bunday ishlarga yo'l ko'rsatmayman. Men o'tkir va zaxarli asboblardan foydalanishni o'z manfaatim uchun qo'llamayman. Qaysi uyga kirmay, bemorning foydasi uchun kirib, har qanday yovuz niyatdan, sharifsiz rag'batdan va ayniqsa, ayollar hamda erkaklar bilan axloqsiz munosabatdan saqlanaman. Shifokor sifatidagi mehnatim vaqtida yoki undan tashqarida menga ma'lum bo'lgan sirlarni hech kimga aytmayman va ularni sir saqlayman. Agar men qasamga va'da qilganimga sodiq qolsam, hayotim va

kasbim sharaflı bo'lsin, odamlar orasida hurmatga sazovor bo'layin; agar bu qasamni buzsam, aksincha, menga botil va sharmandalik bo'lsin." Izoh beradigan bo'lsak: Qadimgi yunonlarda tibbiyot diniy e'tiqod bilan bog'liq edi. Apollon — shifolash xudosi, Asklepiy — tibbiyot va shifo xudosi, Gigiyei — gigiyena va poklik mabudasi, Panakeya — barcha dardlarga davo xudosi. **Xulosa:** Gippokrat tibbiyoti jahon tibbiyoti ilm-fani rivojida ulkan burilish yaratdi. U tibbiyotni miflardan ajratib, klinik kuzatish, tabiiy davolash usullari va tibbiy etikaning mukammal asoslarini ishlab chiqdi. Bugungi kunda ham Gippokrat merosi tibbiy ta'limda, amaliyotda va shifokorlar axloqida o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Gippokratning ilmiy sabr-toqatga, tabiatga asoslangan yondashuvi va insonparvar falsafasi uni insoniyat tarixidagi eng buyuk tabiblardan biri sifatida abadiy mashhur qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 4. Edelstein, Ludwig. The Hippocratic Oath: Text, Translation and Interpretation. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1943.
2. 5. Jouanna, Jacques. Hippocrates. Translated by M. B. DeBevoise. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1999.
3. 6. Porter, Roy. The Greatest Benefit to Mankind: A Medical History of Humanity. London: Harper Collins, 1997.
4. Nutton, Vivian. Ancient Medicine. Routledge, 2013.
5. Temkin, Owsei. Hippocrates in a World of Pagans and Christians. Johns Hopkins University Press, 1991.
6. World Medical Association. WMA Declaration of Geneva (Modern Physician's Oath).
7. Beauchamp, T. L., Childress, J. F. Principles of Biomedical Ethics. Oxford University Press, 2019.
8. Veatch, R. M. The Basics of Bioethics. Routledge, 2020
9. Бобомуродов, А. Тиббиёт тарихи. Тошкент: Тиббиёт нашриёти.
10. Юлдашев, С. Қадимги тиббиёт тарихи ва Гиппократ мероси. Тошкент давлат тиббиёт университети ўқув қўлланмаси.

11. Никифоров, В. С. История медицины. Москва: Медицина, 2004.
12. Гиппократ. Избранные книги. Перевод и комментарии Ф. У. Фердинандера. Москва: Наука, 1988.
13. Tursunova G. B. Tibbiyotda ma'naviyat masalalari, shifokor ma'naviyati //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 5. – С. 790-793.
14. Begmurodovna T. G. RESETTLEMENT AND LIVING CONDITIONS OF THE POPULATION EVACUATED FROM RUSSIA TO THE SYRDARYA (SECOND HALF OF THE XIX CENTURY) //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 3. – С. 800-803.
15. FORMATION AND DEVELOPMENT STAGES OF UZBEK STATEHOOD
G Tursunova - ACUMEN: International journal of multidisciplinary ..., 2024
16. КЎЧИРУВЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МАҲАЛЛИЙ ХАЛҚЛАРИНИНГ СИЁСИЙ, ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошларида)
Г Турсунова - TAMADDUN NURI JURNALI, 2024
17. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI TANIQLI TABIBLAR VA ULARNING FAOLIYATI
G Tursunova - ACUMEN: International journal of multidisciplinary ..., 2024